


BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O'RGANISHNING MAXSUS METODLARI



Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti amaliy psixologiya
yo 'nalishi 2-bosqich talabasi
Pardaboyeva Madina Farxod qizi
pardaboyeva969@gmail.com

Annotation: B.G.Anan'yev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik, (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki natijalarni sharxlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o'zining maqsad va vazifasi bo'yicha yana bir necha toifa hamda turlarga bo'linadi.

Kalit so'zi: Yosh davrlar, Psixolog, metodlar, sport psixologiyasi.

Psixolog B.G.Anan'yev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik, (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki natijalarni sharxlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o'zining maqsad va vazifasi bo'yicha yana bir necha toifa hamda turlarga bo'linadi. Quyida mazkur metodlarning umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsifini keltiramiz. Tadqiqot metodlarining birinchi-tashkiliy guruxi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz) kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiyligi psixologiya sotsial psixologiyasi (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning xar bir toifalarini) meditsina psixologiyasi (sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini) sport psixologiyasi (sportchilarning xolati, kuchliligi va ishchanligini) o'zaro taqqoslash kabilarda unumli foydalilanadi. Yosh davrlar psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi kabilarni o'rganishda qo'llaniladi. Yosh davrlar psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir vaqtida longityud (uzluksiz) metodi ham qo'llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, xatto o'n yillab tekshirishidir. Longityud metodidan foydalananib, nemis olimi V.SHtern, fransuz tadqiqotchisi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Xusan, Fotima-Zuxra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuxra, Fotima-Xusan) egizaklar kuzatilgan. SHuning uchun qator tadqiqotlarning «Ona kundaligi» (N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina) deb nomlanishi bejizga emas. Uzoq vaqt bir shaxsni kuzatish, unda paydo bo'layotgan yangi fazilatlarning rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlarining ichki bog'lanish qonuniyati

hamda mexanizmi to‘g‘risida mukammal ishonchli barqaror ma’lumotlar to‘plash imkonini yaratadi.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti psixologik tekshirishlarning ilmiyligini yanada oshirish uchun (sub‘yektiv omillarning ta’sirini kamaytirish maqsadida) kompleks dastur asosida boshqa fanlar (meditsina, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, filosofiya, logika va hakazolar) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqazo etmoqda. Amaliy yo‘sindagi ilmiy tadqiqot ana shu ko‘p qirrali yondoshishni talab qiladi. Psixologiya soxalarida (psixofiziologiya, kosmik psixologiya, meditsina psixologiyasi, injenerlik yoki aviatsiya psixologiyasi) tadqiqot ob’ektiga sistemali yondoshish prinsipi amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o‘rganilayotgan ob’ektdagi o‘zgarishlar turli nuqtai-nazardan taxlil qilinadi yoki ularga turlicha yondoshiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o‘zlashtirish xususiyati psixologik jixatdan tekshirilayotgan bo‘lsa, kompleks yondoshish ta’sirida ana shu o‘zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik keksayishning biologik omillarini o‘rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jixatlarini yoritishda xizmat qiladi. Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi. Ilmiy tadqiqot metodikalarining ikkinchi guruhi empirik metodlaridan iborat bo‘lib, bu guruxga kuzatish, eksperiment, test, anketa, so‘rov, sotsiometriya, suhbat, interv‘yu, faoliyat jarayoni va uning maxsulini tahlil qilish, tarjimai xol kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz va prognoz vazifalarni bajaradi. Insonda tug‘ilganidan umrining oxirigacha sodir bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlarni chuqurroq va ob’yektivroq tadqiq etish uchun empirik metodlardan navbatil bilan foydalanish yaxshi natija beradi.

Genetik metod bu- Ilmiy tadqiqot metodlaridan 4-sharxlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iborat. Genetik metod bilan tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar yaxlit xolda maqsadga muvofiq yo‘sinda sharxlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonining o‘zgarishiga, tajriba natijasiga suyanib ta`rif hamda tavsif berishdir. Shuningdek unda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo‘lish davri, bosqichi hamda ba’zimashaqqatli daqiqalarga, paytlarga qo‘srimcha sharxlar berish imkoniyati tug‘iladi. Genetik metodga asoslanib psixik o‘zgarishlar irsiyat bilan bevosita bog‘liqligining ildizlari aniqlanadi. Endi tajribada eng ko‘p qo‘llaniladigan empirik metodlar haqida kengroq ma’lumot beramiz.

Kuzatish metodi. Bu metodning ob’yektiv va sub‘yektivkuzatish turlari mavjud. Inson psixologyasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi. 1. Kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi. 2. Kuzatiladigan ob’yekt tanlanadi. 3.

Sinaluvchining yoshi jinsi aniqlanadi. 4. Tadqiqot o'tkazish vaqtি rejalashtiriladi. 5. Kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi. 6. Kuzatish insonning qaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi. 7. Kuzatishning shakli tayinlanadi. 8. Kuzatiladiganlarning qayd qilib borish vositalari axt qilinadi. Kuzatish orqali turli yoshdagи odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokozolari o'r ganiladi. Ammo shaxsning o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak xissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql zakovatini tadqiq etishga bu metodning imkoniyati yetmaydi.

Suhbat metodi - bu metod bilan inson psixikasining o'r ganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqtি aniqlanadi. Suhbat o'tkazish rejalashtiriladi, o'r ganilayotgan narsa bilan uzviylik bog'liq savol javob tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'r ganishdir. Suhbat orqali turliyoshdagи odamlarning tafakkuri, aql zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyo qarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Suhbat metodining ta'kidlangan ijobjiy jixatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytariq so'zlar «g'aliz» iboralar, nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, savol javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi, oshkorlik yetishmasligi, iymanish, uyalish atroficha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Faoliyat maxsuli taxlil qilish metodi. Inson xotirasi, aqliy qobiliyati va xayolini aniqlish maqsadida bu metod yosh davrlari pisixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan shexrlarni taxlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'yekt bilan sub'yekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtdan muayyan xukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat maxsullarining taxlil qilish orqali bolalar o'quvchilar talabalar konstruktorlar olimlar, hunarmandlar, ishchilar, psixik, xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondani psixik o'zgarishlar, kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi etmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'r ganish maqsadida boshqa metodlardan foydalanish ma'qul.

Test metodi - "Test"- ingilizcha so'zdan olingan bo'lib, sinash tekshirish degan ma'noni anglatadi. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatlarini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masalali topshiriq, misol, junboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning kasbiy qobiliyatini

aniqlash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, istexdodlilar va aqli zaiflikni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining maxoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan.

Psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularning ilmiy tahlil qila bilishiga bog'liqdir. 1905 yilda fransuz psixolog A.Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dod darajasini o'lhash imkoniyati borligi g'oyasini olg'asurganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Veksler, Meyli, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalarning ijodlarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga etish) testlari (ular darsliklarda berilgan bilim va malaka darajalarini baholashga qaratilgan) intellektual testlar (aqliy rivojlanish darajasini o'lhashga mo'ljallangan) shaxs testlari (inson emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi, va hulqidan iboratdir.) shaxs "loyiha" (proyektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni taxlil qilib shaxs xususiyatlarini «loyixasini» ishlab chiqiladi) kiradi. Tajriba (eksperiment) metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o'smir, o'spirin, balog'atga etganlar va qarilar) ning psixikasini chuqurroq, aniqroq, tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi xisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida suxniy tushunchalarning shakllanishi, nutqining o'sishi, favqulotda Holatdan chiqish, muammolli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsining xis-tuyg'ulari, xarakteri, tipologik xususiyatlari o'r ganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatları, xossalari, murakkab, mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materiallarini tekshiruvchi sinchikovlik bilan tanlashi ob'yektiv tarzda har-xil holat va vaziyatlarni yaratishi bunda sinaluvchining yoshi, aqli, idroki, xarakteri, xususiyati, his-tuyg'ulari, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga ko'nikma va malakalariga e'tibor berish lozim. Eksperiment metodi o'z navbatida tabiiy va labaratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik pedagogik masalalarni xal qilishda qo'llaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy eksperimentdan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiymuassasalarini xodimlarining, o'quvchilar, keksaygan kishilarning o'zaro munosabatlari ish qobiliyatları, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini xal qilish nazarda tutiladi. Tabiy sharoitda inson psixikasini o'r ganishda sinaluvchilar (bog'cha bolalari, mifik o'quvchilar, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hakozolar) ning o'zlari bexabar bo'lishi ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi katta yoshdagи odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishi kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi zavod va fabrikada esa moddiy maxsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Labaratoriya metodi ko'pincha individual shaklda sinaluvchilardan yashirmay maxsus psixologik asboblar,

yo`l-yo`riqlar, tavsiyalar, ko`rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozirgi zamon kishisi psixikasidagi o`zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron xisoblash mashinalari, qurilmalar, moslama va jixozlar mavjud. Ular odamdagি psixologik jarayonlar, xolatlar, funksiyalar vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o`lchashda qo`llaniladi. Ko`pincha ditektorlar, elektron va radio o`lchagichlar, sekundomer, xronorefleksometr, taxistoskop, audiometr eksteziometr elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Anketa metodi. Yosh davri psixologiyasida keng qo`llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari organiziladi. Anketa odatda uch turda tuziladi. Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo`ljallangan savollardan tuziladi. Ikkkinchi turida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi tur anketada sinaluvchiga yozilgan to`g`ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi, anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o`ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a`zolari o`rtasidagi bevosita emotsiyal munosabatlarni o`rganish va ularning darajasini o`lchashda qo`llaniladi. Unga Amerikalik sotsiolog Djon Morenko asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a`zoring o`zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so`raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Biografiya (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti faoliyati ijodiyoti to`g`risidagi og`zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, estaliklari o`zgalarijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari aloxida o`rin egallaydi. Shu bilan birga o`zgalar tomonidan to`plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: estaliklar ovozlari, fotolavxalar, xujjatli filmlar, taqrizlar o`rganilayotgan shaxsni to`laroq tassavvur etishga xizmat qiladi. Tarjimayi hol inson psixikasining o`zgarishlarini kuzatishda uning suxbat va tajriba metodlari bilan o`rganib bo`lmaydigan jixatlarini ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy hayol bilan bog`liq jarayonlar: shexriyat, musiqa, nafosat, tasviriy sanxat, texnik ijodiyotning nozik turlari va kayfiyatlarini taffakkurning o`ziga xosligi, shaxsning ma`naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, istexdod singari fazilatlarini o`rganish mumkin. Yosh davri psixologiyasining bolalarning tarjimaiholi asosidagi ilmiy tadqiqot, masalan N.A.Chenskaya, V.S.Muxinanining kuzatishlari. Ona kundaligi nomi bilan mashhur. Shunday tadqiqotlar chet el psixologiyasida ham keng tarqalgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1 G. Kraig. Rivojlanish psixologiyasi. Qarang: 2000. 13-60-modda.
- 2 D. Buttervort, M. Xarris. Rivojlanish psixologiyasining tamoyillari. M., 2000- yil. 16-modda.
- 3 I. S. Kon. Bola va jamiyat. M., 1988- yil. 70-modda.
4. D. B. Elkonin. Bolalar psixologiyasiga kirish//. Saybr. psixologik ishlar. M., 2000- yil. 26-modda
5. Vigotskiy L. S. yosh muammosi // sobr. Op.: 6 t. T 4 da. M., 1983 yil. 244-269-modda.
6. Professional Self - Self Awareness and Career Choice. (2024). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(5), 84-88. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/357m>
7. Ozodqulov Olimjon Bahodir o‘g‘li. (2024). RAHBAR VA XODIM MUNOSABATLARINING BOSHQARUV JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>
8. Ozodqulov, O. (2024). VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (T. 2, Выпуск 10, сс. 37–41). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13945058>